

O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.02.2023 yildagi O'RBQ-820-son

Дата вступления в силу

29.08.2023

Дополнительная информация

Поделиться

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

MUVOFIQLIKNI BAHOLASH ORGANLARINI AKKREDITATSIYA QILISH TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 7-iyulda
qabul qilingan
Senat tomonidan 2022-yil 27-dekabrda
ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonunchilik

Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

akkreditatsiya — muvofiqlikni baholash organlarining muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatligini akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

akkreditatsiya bo'yicha baholovchi — muvofiqlikni baholash organini baholash uchun akkreditatsiya organi tomonidan tayinlangan, mazkur faoliyatni mustaqil ravishda yoki baholash guruhi tarkibida amalga oshiradigan jismoniy shaxs;

akkreditatsiya bo'yicha kengash — milliy akkreditatsiya tizimining faoliyat ko'rsatishini baholash, qo'yilgan maqsadlarga erishilishini monitoring qilish va milliy akkreditatsiya tizimini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun tashkil etilgan kollegial maslahat organi;

akkreditatsiya bo'yicha texnik ekspert — akkreditatsiya organi tomonidan tayinlangan, akkreditatsiya bo'yicha baholovchi rahbarligi ostida ishlaydigan, baholanayotgan akkreditatsiya sohasida maxsus bilimlarga yoki ko'nikmalarga ega bo'lgan va baholashni mustaqil ravishda amalga oshirmaydigan jismoniy shaxs;

akkreditatsiya organi — muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilishga oid faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli organ;

akkreditatsiya sohasi — faoliyatning muayyan sohasi bo'lib, unda akkreditatsiya uchun ariza beruvchining yoxud akkreditatsiya qilingan subyektning vakolatligi tasdiqlanadi yoki tasdiqlangan bo'ladi;

akkreditatsiya uchun ariza beruvchi — akkreditatsiya uchun ariza bergan muvofiqlikni baholash organi;

akkreditatsiya sikli — akkreditatsiya qilingan subyekt milliy akkreditatsiya tizimi reyestrda ro'yxatga olingan sanadan e'tiboran amal qiladigan akkreditatsiya muddati;

akkreditatsiya qilingan subyekt — milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash organi;

apellyatsiya — akkreditatsiya uchun ariza beruvchining yoki akkreditatsiya qilingan subyektning o'ziga nisbatan akkreditatsiya organi tomonidan qabul qilingan akkreditatsiyaga doir salbiy qarorni qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi yozma so'rovi;

davriy baholash — akkreditatsiya qilingan subyekt faoliyatining akkreditatsiya davrida belgilangan talablarga muvofiqligini akkreditatsiya siklida qayta baholash tartib-taomili;

muvofiqlikni baholash — muvofiqlikni baholash obyektiga nisbatan qo'yiladigan talablarga rioya etilishini aniqlashga oid faoliyat;

muvofiqlikni baholash organi — muvofiqlikni baholashga oid faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

4-modda. Akkreditatsiyaning asosiy vazifalari

Akkreditatsiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

manfaatdor taraflarning akkreditatsiyadan o'tgan subyektlar faoliyatiga bo'lgan ishonchini ta'minlash;

muvofiqlikni baholash sohasida yagona texnika siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;

akkreditatsiya qilingan subyektlarning faoliyati natijalari xalqaro darajada tan olinishi va qabul qilinishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

5-modda. Akkreditatsiyaning asosiy prinsiplari

Akkreditatsiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

ixtiyoriylik;

xolislik va beg'arazlik;

vakolatlilik;

akkreditatsiya tartib-taomillarining shaffofligi va ochiqligi;

akkreditatsiya shartlarining tengligi;

maxfiy axborotning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik;

akkreditatsiyaga oid faoliyat bilan muvofiqlikni baholash faoliyatini qo'shib olib borishga yo'l qo'ymaslik.

2-bob. Akkreditatsiya sohasini davlat tomonidan tartibga solish

6-modda. Akkreditatsiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Akkreditatsiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

akkreditatsiya sohasidagi milliy standartlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish;

ilg'or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yagona tizimini rivojlantirish hamda takomillashtirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining akkreditatsiya sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

akkreditatsiya sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining akkreditatsiya sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

akkreditatsiya sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishini hamda amalga oshirilishini ta'minlaydi;

akkreditatsiya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha choralar ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining akkreditatsiya sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi akkreditatsiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

akkreditatsiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

akkreditatsiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va ularni o'z vakolatlari doirasida qabul qiladi;

muvofiqlikni baholash organlarining vakolatligiga oid talablarni va mezonlarni belgilovchi standartlarni qabul qiladi;

akkreditatsiya sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etadi;

akkreditatsiya organi tomonidan apellyatsiya va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalarini, paritet baholashga oid xulosalarni, moliyaviy hisobotlarni davriy tahlil qilishni, strategik rejalarning hamda akkreditatsiya tizimini rivojlantirishga doir boshqa rejalarning bajarilishini davriy tahlil qilishni amalga oshiradi;

mustaqil konsalting yoki auditorlik tashkilotlarini jalb etish orqali akkreditatsiya organi faoliyatining monitoringini amalga oshiradi;

akkreditatsiya tizimini rivojlantirish va tartibga solishga oid takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, taqdimnomalarni akkreditatsiya organiga kiritadi;

akkreditatsiya bo'yicha kengashning nizomini va tarkibini tasdiqlaydi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Milliy akkreditatsiya tizimi

9-modda. Milliy akkreditatsiya tizimi va uning ishtirokchilari

Milliy akkreditatsiya tizimi muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalarini va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizimdir.

Milliy akkreditatsiya tizimi ishtirokchilari quyidagilardan iborat:

maxsus vakolatli davlat organi;

akkreditatsiya bo'yicha kengash;

akkreditatsiya organi;

akkreditatsiya qilingan subyektlar;

akkreditatsiya bo'yicha baholovchilar va texnik ekspertlar;

akkreditatsiya bo'yicha texnik qo'mitalar.

10-modda. Akkreditatsiya obyektini va unga nisbatan belgilangan talablar

Muvofiqlikni baholash organlarining muayyan akkreditatsiya sohasida muvofiqlikni baholash ishlarini bajarishga vakolatligi akkreditatsiya obyektidir.

Muvofiqlikni baholash organlarining vakolatligiga oid talablar va mezonlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, shuningdek xalqaro va milliy standartlar bilan belgilanadi.

11-modda. Akkreditatsiya belgisini qo'llash

Akkreditatsiya qilingan subyekt o'zining akkreditatsiya maqomini ko'rsatish uchun akkreditatsiya organi tomonidan berilgan akkreditatsiya belgisini qo'llashi mumkin.

Akkreditatsiya qilingan subyekt akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani olish bilan bir vaqtda uning amal qilish muddatida akkreditatsiya belgisini qo'llash huquqini oladi.

Akkreditatsiya qilingan subyekt akkreditatsiya belgisiga teng bo'lgan milliy akkreditatsiya tizimi reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan raqamga oid matnli havolani o'z xohishiga ko'ra qo'llashi mumkin.

Akkreditatsiya belgisining shakli va uni qo'llash tartibi akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadi.

Akkreditatsiya belgisini qo'llash pulli asosda amalga oshiriladi. Akkreditatsiya belgisini qo'llash uchun to'lov miqdori qonunchilikda belgilanadi.

12-modda. Milliy akkreditatsiya tizimi reyestrini shakllantirish va yuritish

Milliy akkreditatsiya tizimi reyestri akkreditatsiya qilingan subyektlar to'g'risidagi, shuningdek akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomalarning joriy maqomi haqidagi rasmiy axborot bazasidir.

Milliy akkreditatsiya tizimi reyestrini shakllantirish va yuritish akkreditatsiya organi tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy akkreditatsiya tizimi reyestri tanishib chiqish uchun ochiqdir.

Milliy akkreditatsiya tizimi reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadi.

13-modda. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma va akkreditatsiya sohasi

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma akkreditatsiya qilingan subyektning akkreditatsiyaning belgilangan sohasidagi ishlarni bajarishga vakolatligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Akkreditatsiya sohasi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning ajralmas qismi bo'lgan ilovada belgilanadi.

Akkreditatsiya sohasi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi hamda o'lchash birligini ta'minlashga doir normativ hujjatlarga, sinash usullariga (uslubiyatlariga) yoki muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish tartib-taomillarini belgilovchi hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning shakli akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, akkreditatsiya qilingan subyekt akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaga tegishli o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish uchun akkreditatsiya organiga murojaat qilishi mumkin.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma akkreditatsiya siklida besh yil muddatga beriladi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomadan boshqa shaxsning foydalanishi taqiqlanadi.

14-modda. Akkreditatsiyaning tan olinishi

Milliy akkreditatsiya tizimidan tashqarida olingan akkreditatsiya O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tan olinadi.

4-bob. Akkreditatsiya organi

15-modda. Akkreditatsiya organi faoliyatining shartlari

Akkreditatsiya organi mustaqil yuridik shaxsdir va u maxsus vakolatli davlat organining tizimiga hamda tashkiliy tuzilmasiga kiradi.

Akkreditatsiya organining faoliyati akkreditatsiya organiga nisbatan umumiy talablarni belgilovchi xalqaro va milliy standartlar talablariga muvofiq tashkil etilishi kerak.

Akkreditatsiya organining faoliyatida quyidagilar ta'minlanishi kerak:

akkreditatsiya organining o'zi akkreditatsiya o'tkazayotgan muvofiqlikni baholash organlaridan mustaqilligi;

muvofiqlikni baholash organlariga maslahat xizmatlarini ko'rsatishga yo'l qo'yilmasligi;

akkreditatsiya qilinadigan muvofiqlikni baholash faoliyatini amalga oshirishga yo'l qo'yilmasligi;

muvofiqlikni baholash organlarida mulkiy huquqlarning va (yoki) boshqaruv huquqining mavjud bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi;

o'z xizmatlaridan foydalanuvchilardan beg'araz, homiylik yordami yoki boshqa moddiy yordam olinishiga yo'l qo'yilmasligi.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek ularning mansabdor shaxslari akkreditatsiya organining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

16-modda. Akkreditatsiya organining vakolatlari

Akkreditatsiya organi:

akkreditatsiyani, takroriy akkreditatsiyani amalga oshiradi hamda akkreditatsiya uchun ariza beruvchi vakolatlilikka oid belgilangan talablarga va mezonlarga muvofiq bo'lgan taqdirda akkreditatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qiladi;

akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomalarni rasmiylashtiradi, ularga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritadi;

davriy baholashni o'tkazadi;

akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning shaklini, shuningdek akkreditatsiya belgisining shaklini va uni qo'llash tartibini belgilaydi;

akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turadi, qayta tiklaydi yoki tugatadi;

akkreditatsiya bo'yicha baholovchilarning va texnik ekspertlarning malakasini baholashni amalga oshiradi hamda ularning ro'yxatini yuritadi;

akkreditatsiya sohasida o'z vakolatlari doirasida xalqaro shartnomalar tuzadi;

milliy akkreditatsiya tizimining reyestrini shakllantirish va yuritish tartibini belgilaydi;

akkreditatsiya bo'yicha texnik qo'mitalar, apellyatsiya komissiyasi to'g'risidagi nizomlarni va ularning tarkibini tasdiqlaydi.

Akkreditatsiya organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

17-modda. Akkreditatsiya bo'yicha texnik qo'mitalar

Akkreditatsiya bo'yicha texnik qo'mitalar akkreditatsiya sohasidagi maslahat organi bo'lib, ular akkreditatsiya masalalari bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek zarur bo'lganda akkreditatsiya organiga uning akkreditatsiya bilan bog'liq holda qabul qilinayotgan qarorlariga nisbatan tavsiyalar tayyorlash uchun akkreditatsiya organi tomonidan tashkil etiladi.

Akkreditatsiya bo'yicha texnik qo'mitalar yuridik shaxs bo'lmaydi.

Akkreditatsiya bo'yicha texnik qo'mitalar to'g'risidagi nizom va ushbu qo'mitalar tarkibi akkreditatsiya organi tomonidan tasdiqlanadi.

18-modda. Apellyatsiya komissiyasi

Apellyatsiya komissiyasi akkreditatsiya organining akkreditatsiyani amalga oshirishga, akkreditatsiya qilishni rad etishga, akkreditatsiyaning amal qilishini to'xtatib turishga yoki tugatishga, akkreditatsiya sohasini kengaytirishga va qisqartirishga doir qarorlari bo'yicha apellyatsiyalarni ko'rib chiqish hamda qarorlar qabul qilish maqsadida akkreditatsiya organi huzurida tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi ko'rib chiqilayotgan qarorni qabul qilishda ishtirok etmagan akkreditatsiya bo'yicha baholovchilar va texnik ekspertlar orasidan shakllantiriladi.

Apellyatsiya komissiyasi to'g'risidagi nizom va komissiyaning tarkibi akkreditatsiya organi tomonidan tasdiqlanadi.

5-bob. Akkreditatsiyani amalga oshirish tartibi

19-modda. Akkreditatsiyani amalga oshirish

Akkreditatsiya organi akkreditatsiyani akkreditatsiya olish uchun berilgan ariza asosida, shuningdek, basharti akkreditatsiyaga oid ishlarni bajarishga doir shartnoma tuzilgan bo'lsa, amalga oshiradi.

Akkreditatsiya tartib-taomilidan o'tish ketma-ketligi, ushbu Qonun talablari hisobga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan akkreditatsiyadan o'tkazish tartibiga muvofiq belgilanadi.

Akkreditatsiyadan o'tish natijasi ijobiy bo'lganda akkreditatsiya sikliga akkreditatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi va akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtiriladi.

Akkreditatsiyadan o'tkazish tartibida belgilangan barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilmagan taqdirda, akkreditatsiya organi akkreditatsiyani o'tkazishni rad etadi.

Akkreditatsiya uchun ariza beruvchining akkreditatsiya natijalariga ko'ra, ariza berilgan akkreditatsiya sohasidagi muvofiqlikni baholash ishlarini bajarishga vakolatligi tasdiqlanmagan taqdirda, akkreditatsiya organi akkreditatsiya qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Akkreditatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, akkreditatsiya organi va akkreditatsiya qilingan subyekt o'rtasida akkreditatsiyadan keyingi shartnoma tuziladi, unda quyidagilar aks ettiriladi:

akkreditatsiya organi va akkreditatsiya qilingan subyekt o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shu jumladan taraflarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;

akkreditatsiya qilingan subyektni davriy baholashni amalga oshirish shartlari;

akkreditatsiya belgisini qo'llash shartlari.

20-modda. Davriy baholash

Davriy baholash akkreditatsiya qilingan subyektlarning ularga nisbatan belgilangan vakolatlikka oid talablarga va mezonlarga doimiy muvofiqligini aniqlash, shuningdek ularning muvofiqligini qayta tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi.

Davriy baholash tartib-taomili hamda uning muddatlari akkreditatsiyadan o'tkazishning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibiga muvofiq aniqlanadi va u akkreditatsiyaning ajralmas qismi bo'ladi. Davriy baholash chog'ida akkreditatsiya qilingan subyekt bilan ishlarni bajarishga doir shartnoma tuziladi.

21-modda. Akkreditatsiyaning amal qilishi va takroriy akkreditatsiya

Akkreditatsiya, agar akkreditatsiyaning amal qilishi tugatilmagan bo'lsa, akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan muddat davomida amal qiladi.

Akkreditatsiyaning amal qilishi tugatilgan taqdirda, uning amal qilishi qayta tiklanmaydi.

Takroriy akkreditatsiya, basharti akkreditatsiya qilingan subyekt akkreditatsiyaning amal qilishi tugaguniga qadar ariza bergan bo'lsa, ushbu subyektning avvalgi faoliyati natijalari hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

22-modda. Akkreditatsiyaning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash va tugatish

Akkreditatsiyaning amal qilishi akkreditatsiya organining qarori bilan belgilangan tartibda to'xtatib turiladi, qayta tiklanadi yoki tugatiladi.

Akkreditatsiyaning amal qilishi akkreditatsiya qilingan subyektning tashabbusiga ko'ra to'xtatib turilishi, qayta tiklanishi yoki tugatilishi mumkin.

Akkreditatsiya organining akkreditatsiyaning amal qilishini to'xtatib turish va tugatish to'g'risidagi qarori ustidan apellyatsiya komissiyasiga yoki sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Akkreditatsiyaning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash va tugatish tartib-taomillari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan akkreditatsiyadan o'tkazish tartibida belgilanadi.

23-modda. Akkreditatsiya sohasini kengaytirish va qisqartirish

Akkreditatsiya sohasini kengaytirish va qisqartirish akkreditatsiya qilingan subyektning akkreditatsiya sohasiga akkreditatsiyadan o'tkazish tartibiga muvofiq o'zgartishlar kiritish orqali akkreditatsiya organi tomonidan amalga oshiriladi.

24-modda. Akkreditatsiyaga, davriy baholashga va akkreditatsiya sohasini kengaytirishga oid ishlarni bajarishga doir shartnomalar

Akkreditatsiya, davriy baholash va akkreditatsiya sohasini kengaytirish ushbu Qonunga, shuningdek akkreditatsiya organi va akkreditatsiya uchun ariza beruvchi yoki akkreditatsiya qilingan subyekt o'rtasida qonunchilik talablariga muvofiq tuziladigan shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Akkreditatsiyaga, akkreditatsiya qilingan subyektni davriy baholashga va akkreditatsiya sohasini kengaytirishga oid ishlarni bajarishga doir shartnoma taraflarning kelishuviga ko'ra boshqa shartlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Ushbu moddada nazarda tutilgan xizmatlarning qiymati sarflangan vaqt va xizmat safarlari xarajatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Shartnomaga muvofiq akkreditatsiyaga oid ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar akkreditatsiya uchun ariza beruvchi tomonidan, davriy baholashga va akkreditatsiya sohasini kengaytirishga oid ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar esa, ularning natijalaridan qat'i nazar, akkreditatsiya qilingan subyekt tomonidan to'lanadi.

Akkreditatsiyaga, davriy baholashga va akkreditatsiya sohasini kengaytirishga oid ishlarni bajarishga sarflangan vaqtning hisob-kitob uslubiyoti akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadi hamda uning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

25-modda. Akkreditatsiya uchun ariza beruvchining huquq va majburiyatlari

Akkreditatsiya uchun ariza beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

akkreditatsiya organiga akkreditatsiya uchun ariza bilan murojaat qilish;

akkreditatsiyaga oid ishlarni bajarish uchun shartnoma tuzish;

akkreditatsiya organining qarori ustidan apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya berish va (yoki) sud tartibida shikoyat qilish.

Akkreditatsiya uchun ariza beruvchi qonunchilikka hamda akkreditatsiyaga oid ishlarni bajarishga doir shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Akkreditatsiya uchun ariza beruvchining zimmasida akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga, muvofiqlikni baholash organlariga nisbatan xalqaro va milliy standartlarda, akkreditatsiya sohasidagi xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida belgilangan talablarga va mezonlarga rioya etish, shuningdek akkreditatsiya jarayonida ularning bajarilayotganligini isbotlash majburiyatlari bo'ladi.

26-modda. Akkreditatsiya qilingan subyektning huquq va majburiyatlari

Akkreditatsiya qilingan subyekt:

akkreditatsiya organiga akkreditatsiya sohasini kengaytirish va qisqartirish, takroriy akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish;

akkreditatsiya organiga akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish, akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash va tugatish haqidagi ariza bilan murojaat qilish;

akkreditatsiya belgisini ushbu Qonun talablariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan akkreditatsiyadan o'tkazish tartibiga muvofiq qo'llash;

akkreditatsiya organining qarori ustidan apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya berish va (yoki) sud tartibida shikoyat qilish huquqiga ega.

Akkreditatsiya qilingan subyektlar o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ilgari surish va himoya qilish maqsadida, qonunchilikning barcha talablariga, milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya qilish tartibini va tartib-taomillarini belgilovchi qoidalarga, qo'llanmalarga, yo'riqnomalarga hamda boshqa hujjatlarga rioya etgan holda, akkreditatsiya qilingan subyektlarning uyushmalarini tashkil etishi mumkin.

Akkreditatsiya qilingan subyekt qonunchilikka va davriy baholashga oid ishlarni bajarishga, akkreditatsiya sohasini kengaytirishga doir shartnomaga, shuningdek akkreditatsiyadan keyingi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Akkreditatsiya qilingan subyekt:

akkreditatsiya organiga muvofiqlikni baholash ishlarining bajarilishi yuzasidan o'z faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishi;

davriy baholashni o'tkazishga oid ishlarni bajarishga doir shartnomalarni bunday baholashning davriyligiga muvofiq tuzishi;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida o'ziga nisbatan belgilangan talablarga, shuningdek xalqaro va milliy standartlarda, akkreditatsiya sohasidagi xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga va mezonlarga rioya etishi;

davriy baholash va akkreditatsiya sohasini kengaytirish ishlarini amalga oshirish chog'ida akkreditatsiya bo'yicha baholovchilarning va texnik ekspertlarning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

Milliy akkreditatsiya tizimi reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan raqamiga havola qilishi yoxud o'zining faqat akkreditatsiya sohasi tatbiq etiladigan muvofiqlikni baholash ishlariga nisbatan akkreditatsiya qilinganligi to'g'risida boshqacha shaklda bildirishi shart.

Akkreditatsiya qilingan subyektning zimmasida qonunchilikka va davriy baholashga, akkreditatsiya sohasini kengaytirishga oid ishlarni bajarishga doir shartnomaga, shuningdek akkreditatsiyadan keyingi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

27-modda. Akkreditatsiyaga doir ishlarni moliyalashtirish

Akkreditatsiyaga doir ishlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, akkreditatsiya bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan mablag'lar, akkreditatsiya belgisini qo'llaganlik uchun ajratmalar, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya organining akkreditatsiya bo'yicha xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki uchun to'lanadigan a'zolik badallari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladi.

28-modda. Nizolarni hal etish

Akkreditatsiya sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

29-modda. Akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

30-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

31-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

32-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2023-yil 27-fevral,
O'RQ-820-son

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2023-y., 03/23/820/0114-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln
so'ngacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha
Kredit muddati: 2-48 oygacha

